



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar - avgust)

66,6%



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

4 915,6
ming so'm




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

52,1%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- sentabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar – avgust)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- sentabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar - avgust)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar - avgust oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar - avgust oylari)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar - avgust oylari)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	4 512,5	100,0	111,7
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 923,5	42,6	113,5
Shirin	62,6	1,4	115,2
Yangiyer	334,3	7,4	118,8
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	385,0	8,5	106,2
Guliston	199,1	4,4	108,8
Mirzaobod	199,9	4,4	111,1
Oqoltin	170,9	3,8	109,5
Sardoba	178,8	4,0	111,3
Sayxunobod	197,9	4,4	104,6
Sirdaryo	638,4	14,2	111,9
Xovos	222,1	4,9	107,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar - avgust oylari)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar - avgust oylari)

Hajmi, ming so'mda O'sish sur'ati

Guliston shahri

19 235,6

110,0%

Yangiyer shahri

6 935,3

115,9%

Sirdaryo tumani

4 635,9

110,0%

Shirin shahri

3 227,2

114,6%

Oqoltin tumani

3 052,4

108,0%

Boyovut tumani

2 759,5

104,2%

Sardoba tumani

2 532,2

109,6%

Guliston tumani

2 491,5

106,6%

Mirzaobod tumani

2 474,1

109,0%

Sayxunobod tumani

2 382,1


103,2%

Xovos tumani

2 160,9


105,8%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar - avgust oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **52,1** foizni, shu jumladan, **23,9** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar - avgust oylari)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar


(2024- yil yanvar - avgust oylari)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	4 512,5	100,0	111,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	272,9	6,0	115,4
Moliyaviy xizmatlar	1 450,7	32,2	111,7
Transport xizmatlari	563,1	12,5	119,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	520,7	11,5	119,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	134,4	3,0	115,7
Savdo xizmatlari	1 091,7	24,2	108,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	111,4	2,5	108,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	149,4	3,3	111,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	114,9	2,5	105,7
Ijara xizmatlari	74,3	1,6	118,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	103,9	2,3	112,7
Shaxsiy xizmatlar	94,8	2,1	104,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	40,5	0,9	110,2
Boshqa xizmatlar	310,5	6,9	109,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar - avgust oylari)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar - avgust oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	898,7
Sirdaryo tumani	113,4
Boyovut tumani	90,9
Oqoltin tumani	63,9
Sayxunobod tumani	63,2
Sardoba tumani	50,7
Guliston tumani	50,2
Xovos tumani	49,6
Yangiyer shahri	43,7
Mirzaobod tumani	15,8
Shirin shahri	10,6

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-avgust oylari)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar - avgust oylarida 92,8 foizni tashkil etdi.**

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **61,9 foizni yoki 898,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.**


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **92,5 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **140,4** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **117,0 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar - avgust oylari)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi¹⁾ (yanvar-avgust oylari)

2024- yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **520,7** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,5 %** ni tashkil etdi.



Guliston shahar	128,0
Sirdaryo tumani	100,9
Yangiyer shahar	75,3
Guliston tumani	43,4
Xovos tumani	43,2
Mirzaobod tumani	33,4
Sardoba tumani	31,7
Boyovut tumani	21,8
Sayxunobod tumani	18,5
Oqoltin tumani	16,3
Shirin shahar	8,2

● **117,2%** **Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**
(2024- yil yanvar - avgust oylari)

● **120,4%**

● **119,3%**

● **119,4%**

● **119,9%**

● **117,0%**

● **122,1%**

● **119,2%**

● **117,9%**

● **117,6%**

● **122,4%**



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
(2024- yil yanvar - avgust oylari)

62,3 %

Yo'lovchi tashish

37,7%

Yuk tashish

Hajmi, mlrd. so'mda ● **O'sishi**

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar - avgust oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **65,0** foizni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari dinamikasi¹⁾

(yanvar-avgust oylari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar - avgust oylari)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-avgust** oylarida ularning ulushi **93,3** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar - avgust oylari)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar - avgust oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar - avgust oylari)





Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-avgust** oylaridagi ulushi **61,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar - avgust oylari)




Hajmi, mlrd. so'mda




O'sish sur'ati

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar - avgust oylari)

2024- yilning yanvar - avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 30,1 foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar – avgust oylari)





Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar - avgust oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **97,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar - avgust oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sish sur'ati

2024- yilning yanvar - avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **92,1** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar - avgust oylari)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - avgust oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar–avgust oylari)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – avgust oylari, mlrd. so'mda)




2020- yilning yanvar – avgust oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **40,3** mlrd. so'mga oshib, **74,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar - avgust** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **40,8 %** ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar–avgust oylari)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **21,9** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – avgust oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar - avgust oylari)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar – avgust oylari, mlrd. so'mda)



2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **18,0** mlrd. so'mga oshib, **94,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **77,3** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromatlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.